iqtisodiyot ko‘lamini kengaytirish va sur’atlarini oshirish maqsadini ko‘zlash hamda doimo millat manfaatlari ustuvor o‘rinlarda turishi ma’naviy xavfsizlik masalalariga chuquqr tizimli faoliyatni olib borish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 1-tom, 592–593-betlar.

(2). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 3-jild, Toshkent, “Fan”, 2008, 91-bet.

(3). Q.Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. 2-tom, Toshkent, O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2022, 300-bet.

(4). Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997, 4–13-betlar.

(5). Aflotun. Qonunlar. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2002, 10-bet, U.Otajonov tarjimasi.

Dehqonova Saida Keldiboevna (Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

ADOLAT UNIVERSAL KATEGORIYA SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adolat tushunchasining falsafiy va huquqiy talqinlari, mazmun-mohiyati, baholovch tushuncha ekanligi hamda uning universal kategoriya ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *adolat, falsafa, huquq, kategoriya, baholovchi tushuncha, universal kategoriya.*

Дехконова Саида Келдибаевна (исследователь, Гулистанский государственный университет)

СПРАВЕДЛИВОСТЬ КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ КАТЕГОРИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрываются философско-правые интерпретации понятия справедливости, его сущность в качестве оценочного понятия и его универсальная категория.*

Ключевые слова: *справедливость, философия, право, категория, оценочное понятие, уни-версальная категория.*

Dehqonova Saida Keldiboevna (independent researcher at Gulistan State University)

JUSTICE AS A UNIVERSAL CATEGORY

Annotation. *This article reveals the philosophical and legal interpretations of the concept of justice, its essence, the fact that it is an evaluative concept and its universal category.*

Key words: *justice philosophy, law, category, key concept, universal category.*

Kirish. Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida shunday ma’nodar va tagdor tushunchalar mavjudki, ular mazmun-mohiyati, jozibasi, asli, qamrovi va murakkabligi asrlar osha o‘z mazmunini, ahamiyatini yo‘qotmaydi. Odomzod o‘yga, soladi, mulohaza va mushohadaga undaydi. O‘shanday qanotli va hikmatli tushunchalardan biri adolat tushunchasidir. Bunday tushunchalar kishilik jamiyatida hali urug‘chilik tuzumi davridayoq qaror tapa boshlab, butun tafakkur tarixi davomida istemolda bo‘lib, o‘zgarib, yangi-yangi ma’no kasb etib kelgan va keladi. Shunday tushunchalardan biri “Adolat” tushunchasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda professorlar: H.Aliqulov “Adolat buyuk donishmandlar talqinida”, Q.Nazarov “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”da, AXolbekov “Raqamli jamiyatda ijtimoiy adolatning amalga oshirish imkoniyatlari” va tadqiqotchi Z.Alimova “Ijtimoiy adolat tamoyillari va uning islom dinida namoyon bo‘lish xususiyatlari” mavzularida tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adolat tushunchasining: tenglik, barobar, ekvalent, adl, mos, simmetriya, dangal, ro‘y-rost, rosti, chin, insof, indallo, asli, qiyosi, haq, haqiqat, odil, tarozi pallasi, to‘g‘ri, halol kabi talqinlari ham bo‘lib, u “baxt”, “tenglik”, “tinchlik”, “ozodlik” tushunchalari kabi kishilarning talobotini o‘zida ifoda etadi.

Adolat, avvalo, axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy, ilmiy kategoriya hisoblanadi. Adolat alohida kishi yoki ijtimoiy guruhning amaliy faoliyati bilan taloboti va ularning ma’naviy holati o‘rtasidagi munosabatlarning mosligini ifodalovchi tushunchadir. Jamiyatning shaxsga munosabati, shaxsning jamiyatga munosabati, shaxsning boshqa shaxsga munosabati bo‘lishi mumkin. Demak, adolat jamiyat va shaxs, shaxs va jamiyat, shaxs va boshqa shaxslar o‘rtasidagi ma’naviy voqelikdagi munosabatlarni baholash mezonidir. Bu baholash iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki axloqiy bo‘lishi mumkin va hayotning barcha jabhalarida kechadigan ma’naviy munosabatlarda qo‘llaniladi. Adolat insoniyat ma’naviyati qadriyatlariniig oliy ko‘rinishlaridan biridir. “Adolat keng qamrovli falsafiy va axloqiy tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy hayotda va kishilararo munosabatda muhim o‘rin egallaydi” [2;5-b.].

Odam dunyoga kelar ekan, u yashamoq uchun ham biologik, ham ma’naviy mavjudot sifatida o‘zida

turli narsalarga ehtiyoj sezadi. Agarda inson hayotining dastlabki davrida biologik ehtiyojlar asosiy o‘rin tutsa, kishining voyaga yetib borishi bilan, ma’naviy ehtiyojlar hayot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Odam ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi sababli, u axloqiy-ruhiy doirada, ma’naviy muhit doirasida qamralgan bo‘ladi. Ma’naviy tuzum o‘zgarishi bilan ma’naviy munosabatlar ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham adolat tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin etib kelingan. Qadim-qadimdan adolat xalqlar og‘zaki va yozma ijod namunalarida ta’riflangan. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari boy islomiy va dunyoviy merosga ega. Buni o‘rganish va uni xalqimiz e’tiboriga havola etish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Aytish mumkinki, hozirgi dorulamon kunlarimizda Amir Temur va Naqshband bobolarimizning islomiy adolat ruhida sug‘orilgan hayot yo‘li, tajribasi, merosi hamda umumislomiy va sharqona adolat ta’limoti biz merosxo‘rlar uchun ibratli maktabdir. Buni xalqimiz e’tiboriga havola etish zamonamizning ilmfai fidoyilari zimmasiga tushadi.

Adolat keng qamrovli universal tushuncha bo‘lib, u ma’naviy hayotda va kishilararo munosabatda muhim o‘rinni egallaydi. Adolat haqida juda chiroyli va uzoq gapirish mumkin. Ayni bir paytda, ushbu kategoriyaga manbalarda turlicha ta’rif beriladi. Masalan, “Falsafa” qomusiy lug‘atida adolat shunday tavsiflanadi: “Adolat – shaxs va ma’naviy guruhlar imkoniyatlari va talablari, huquqlari va farovonligining me’yorini, jamiyatning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari me’yorini, turli sinflar va ma’naviy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy voqealarga munosabatini xarakterlovchi ma’naviy ong tushunchasi”dir [4;14-b.]. Ushbu qomusiy lug‘atda adolatning jamiyatda oltita asosiy vazifani bajarishiga e’tibor qaratilgan:

Birinchidan, jamiyatdagi ma’naviy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Ikkinchidan, turli ma’naviy guruhlar manfaatlarining himoya qilinishini ta’minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turadi.

Uchinchidan, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshiradi.

To‘rtinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarni himoyalovchi vositya sifatida xizmat qiladi.

Beshinchidan, voqelikda keng ildiz otgan, lekin ma’naviy taraqqiyotga to‘siqlik qilayotgad munosabatlarni bartaraf etadi.

Oltinchidan, kelajakka ishonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. Unda adolatning asosiy mezoni ma’naviy taraqqiyot ekanligi ta’kidlangan.

Ma’naviyatshunoslikka oid lug‘atda esa adolat tushunchasiga quyidagicha umumiy tasnifi berib o‘tilgan [3;29-b.]:

1) talab va taklif qoidasi;
2) teng imkoniyatlar qoidasi;
3) ehtiyoj qoidasi;
4) ma’naviy kafolat qoidasi;
5) xizmat ko‘rsatish qoidasi;
6) mutanosiblik qoidasi;
7) ekvivalentlik qoidasi;
8) rag‘batlantirish qoidasi;
9) kasbiy layoqatlilik qoidasi;
10) ma’naviy foydalilik qoidasi tarzida.

Mazkur qoidalar bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha demokratik jamtlarda keng qaror topgan. Bu qoidalar hayotga qanchalik keng joriy etilsa, fuqarolik jamiyati poydevori shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Adolatlilik va adolatsizlik kishilar hayotida turlicha munosabatlarda namoyon bo‘ladi, ya’ni bu haqdagi tushunchaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tomonlari bor. Ular esa bir-birlaridan farq qiladilar. Lekin bu turlicha munosabatlarning o‘zlari o‘zaro bog‘lanishli bo‘lgani kabi, ularning ifodasi bo‘lgan adolat tushunchasining ham ma’naviy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy mazmunlari ham yaqin birlikni tashkil etadi. Ular bir-birlarini to‘ldiradi.

Mutafakkirlarning adolat haqidali fikrlarida ham shunday bog‘liqlikni ko‘ramiz. Ularning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarda bayon etgan adolatlilik va adolatsizlik haqidagi fikrlarida axloqiy tomonning ham aks ettirilishi ko‘zga tashlanadi. Turli jamiyatlarda, turli qatlamlarning vakili sifatida maydonga chiqqan mutafakkirlarning adolat haqidagi fikrlari turlicha bo‘lgan, ularda ma’lum toifalarning maqsadlari o‘z ifodasini topgan.

Lekin, shu bilan birga, adolat tushunchasining umuminsoniy mazmuni ham mavjud bo‘lib, u mazmun zamondan zamonga, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tib kelgan. Ular ko‘proq xalq ijodi namunalari-

da, shuniigdek, eng ilg‘or mutafakkir, yozuvchi va ijodkorlarning asarlarada o‘rin olgan. Bunday buyuk-shaxslar o‘zlarining manfaatlari doirasidan yuqoriroq ko‘tarilib, adolat tushunchasini umuminsoniy manfaatlarda ifodalaganlar. Masalan, o‘tmishdagi og‘ir ekspluatatsiya va zulmga qarshi, asorat va qullikka qarshi, hukmron sinf va toifalarning imtiyozlari va boshqalarning kamsitilishiga qarshi, bosqinchilik va qirg‘in barot urushlar, uning natijasida xalq ommasining xonavayronligi, tekinxo‘rlik va maishatparastlikka qarshi qaratilgan, mehnat va mehnatkash xalqni qadrlash va ulug‘lash, mamlakatlar, xalqlar va odamlar o‘rtasida chin do‘stlik o‘tnatish, tinchlik va osoyishtalikni barqarorqilish, hamma uchun teng, barobar va farovon hayot qurish haqidagi fikrlar, g‘oyalar umuminsoniy mazmundagi fikrlardir. Lekin bu oliyjanob fikr va g‘oyalarning antagonistik jamiyatlarda ro‘yobga chiqishi, amalga oshishi mumkin emas edi, shuning uchun ular faqat xayol, orzu bo‘lib kelgan edi, xolos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek, “Ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Motrudiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘lgan” [1;16-b.].

Xulosa. Birinchidan, o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarining adolat haqidagi fikrlari, g‘oyalari, qarashlari va ta’limotlari bilan tanishish, birinchidan, adolat haqidagi tugal, ilmiy asoslangan dunyoqarash shakllanishiga olib keladi. amalda, vujudga kelgan va rivojlanayotganyangi jamiyatdagi adolatli munosabatlarning qadri qimmatiga etish, nihoyat, uchinchidan, adolat tamoyillari kishilarning o‘zaro munosabatlarida kundalik odat shakliga kirib borishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, xulosa o‘rnida aytganda, adolat tushunchasi nafaqat falsafiy, huquqiy, axloqiy, ma’naviy tushuncha, kategoriya, balki universal kategoriya hamdir. Adolat inson faoliyatini baholovchi tushuncha bo‘lib, uning ma’naviy faoliyatini ham baholashi mumkin. Hozirgi ma’naviy yangilanish jarayonlarida adolat tushunchasining universallik mazmun va mohiyati yanada teran ahamiyat kasb etib, yoshlarimizni kamolot omillaridan biri sifatida bo‘y ko‘rsatib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston srtategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021.
(2). Aliqulov H. Adolat buyuk donishmandlar talqinida. T., “Falsafa va huquq”, 2010.
(3). Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2021.
(4). Falsafa. Qomusiy lug‘at. T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.

Ismoilov Sobirjon To‘rabekovich (GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi)

AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOV FALSAFA MAKTABI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘z Ibrohim Mo‘minov falsafa maktabi haqida boradi. Muallif o‘z maqolasida ushbu maktab namoyondalari va ularning boy ilmiy me’rosining ahamiyati, falsafiy maktabning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bergan hamda bu falsafa maktabining faoliyati haqida xulosalar chiqargan.*

Kalit so‘zlar: *falsafa, Ibrohim Mo‘minov, falsafiy maktab, ilmiy me’ros, o‘ziga xos jihatlar, ilmiy faoliyat, xulosalar.*

Исмаилов Собиржон Турабекович (доцент кафедры «Общественных наук» ГулГУ, кандидат философских наук)

ШКОЛА ФИЛОСОФИИ АКАДЕМИКА ИБРАГИМА МУМИНОВА

Аннотация. *Эта статья о философской школе Ибрагима Муминова. В своей статье автор приводит информацию о представителях этой школы и значении их богатого научного наследия, специфике философской школы, делает выводы о деятельности философской школы.*

Ключевые слова: *философия, Ибрагим Муминов, философская школа, научное наследие, особенности, научная деятельность, выводы.*

Ismailov Sobirjon Turabekovich (Associate professor of the department of “Social sciences” GulSU, candidate of philosophical sciences)

SCHOOL OF FILOSOPHY AKADEMIKAN IBRAGIM MUMINOV

Annotation. *This article is about the philosophical school of Ibragim Muminov. In his article, the author provides information about the representatives of this school and the significance of their rich scientific heritage, the specifics of the philosophical school, draws conclusions about the activities of this philosophical school.*